

## SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Urozimbetova Sarvinoz Rustam qizi**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti pedagogika fakulteti  
maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada temperamentning fiziologiyasi asoslari, temperament tillarini kelib chiqishi, temperament tiplarining tavsifnomasi, temperament tiplarining kelib chiqishi, faoliyatning individual uslubi, xarakterning fiziologik xususiyatlari, xarakter aksentuatsiyasi, xarakterning shakllanishi, qobiliyatlarning tabiiy asoslari, talant paydo bo'lishi va rivojlanishi haqida fikr yuritilgani.*

**Kalit so'zlar:** *shaxs, xususiyat, temperament, xarakter, qobiliyat.*

Shaxsning individual psixologik xususiyatlariga temperament, xarakter va qobiliyat kiradi. Temperament lotincha " temperamentum " degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi " aralashma " degan ma'noni anglatadi. Temperament to'g'risidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda. Qadimgi yunon olimi Gippokrat ta'limotiga binoan insonlarning xususiyati jihatidan o'zaro bir - biridan o'zaro tavofutlanishi ularning tana a'zolaridagi suyuqliklarning turlicha nisbatta joylashuviga bog'liq ekanligini tasavvur qiladi. Gippokratning to'rt xil moddalar ( suyuqliklar) aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi ( Sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxo'lik) ramziy ma'noda hozirgi zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda.

Nerv sistemasining umumiy tiplari kelib chiqishi yuzasidan mulohaza yoritilganda albatta, I.P.Povlovning ta'limotini eslash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi davrda nerv sistemasining umumiy tipi ( genotip ) irsiyatga bog'liq ekanligini haqidagi ma'lumotlar juda ko'p.

Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruh uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuyi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi.

Turli temperament tipiga mansub insonlardan har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatleri holatlari ro'y beradi.

Sangvinik yuksak reaktivlik, bo'lar - bo'mas narsalarga xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb

qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo - ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft bashoratga qarab kayfiyatning qandayligi, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi. Sust sinzitivlikka ega.

Xolerik xuddi Sangvinik kabi sinzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u o'zini tinimsiz ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va ko'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlariga va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qat'iylik bor, diqqatini ko'chirishda qat'iylikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga yetkazadi.

Flegmatik sinzitivligi sust hissiy qo'zg'aluvchanligi oz kuldirish, jahlini chiqarish, k ayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazniligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz voqea yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo - ishoralari oz harakatlari ifodasiz, qat'iychanligi bilan ajralib turadi. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi.

Melanxolik yuksak sinzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak. Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arabchani sekin yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust, o'ziga ishonmaydi, tortinchoq. G'ayratsiz qat'iy emas. Psixik tempi sust.

Faoliyatning individual uslubi insonga o'zidan- o'zi vujudga kelmaydi, u shaxs kamolotining barcha bosqichlarida shakllanishi beradi. Insonning temperamenti faoliyatning individual uslubini tartib toptiradi.

Temperament xususiyatlarining o'ziga xos yig'indisi inson faoliyati munosabatlari va bilish jarayonlarida faolligining individual uslubi jarayonida namoyon bo'ladi.

Har bir odam har qanday boshqa odamdan o'zining individual psixologik xususiyati bilan ajralib turadi. Bu jarayonda asosiy e'tibor xarakter muammosiga qaratiladi. " Xarakter " so'zi grekchadan olingan bo'lib, " tamg'a" , " belgi" degan ma'noni anglatadi.

Xarakter deganda mazkur shaxs uchun tipik hisoblangan faoliyat usullarida namoyon bo'ladigan, shaxsning turli sharoitlarga munosabati bilan belgilanadigan individual psixologik xususiyatlar yig'indisi tushuniladi.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qiladigan va fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganligi tufayli, xarakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. Xarakterning

nerv - fiziologik tushunish uchun I.I.Povlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir.

Xarakter hislatlari kelib chiqishining muhim fiziologik xususiyatlaridan biri xarakter xususiyatlarining fiziologik hamda psixologik jihatdan ifodalanishi o'rtasida o'xshashlik bo'yicha taxminiy xulosa chiqarishdir.

Xarakter aksentuatsiyasi turlarini tasniflash ancha murakkablik tug'diradi hamda har xil nomeklaturasi bo'yicha bir- biriga mos kelmaydi.

Xarakter aksentuatsiyasi- biror - bir xususiyatning boshqalariga zarari kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarning yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aksentuatsiyasi turli darajada yangi va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin.

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishi xususiyatlaridan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik xususiyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi.

Kishining butun hayoti davomida uning xarakteri tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xarakterning tarkib topishiga taqliddan ro'li katta. Bolalar o'ta - onasiga , yaqin kishilarga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi ro'li juda katta. Har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning sifatleri uchun o'zi javobgardir. O'z xarakterini tarbiyashda kishi avvalo yaxshi fazilatlar ini ko'zda tutmog'i lozim.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, malaka, ko'nimalarini egallash shu xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu xususiyatlarining o'zi bu bilim va ko'nikmalariga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyat faqat faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarisiz amalga oshirilishi mumkin bo'magan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashtirilgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malakalar yetishmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lishi jarayonida shakllanadi.

Talantning ijtimoiy -tarixiy, tabiiy nuqtai nazardan talqinli qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichi ekanligidan dalolat beradi. Talant yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy tabiiy xislat degan ma'noni anglatib,

muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli va ijodiy ravishda bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar majmuasidan iborat individual xususiyatlardir.

Talant o'zining umumiy va maxsus sifatlari yig'indisi bilan ijodiy yutuq imkoniyatlarini ayniyatidir. Talant imkoniyat tariqasida

psixologik hodisa hisoblansa, u holda mahorat haqiqatga aylangan imkoniyat gavdalànishidir. Psixologik nuqtai nazardan haqiqiy mahorat bu shaxs talantining faoliyatda namoyon bo'lishidir.

Xulosa qilib aytganda ma'lum bir faoliyatga qiziqmay turib qobiliyat haqida gapirib bo'lmaydi va o'z navbatida har qanday qobiliyatli bola hali iste'dodli degani emas. Ko'p qirrali va rivojlangan qobiliyatlar iste'dodli bola shaxsining moddiy asosini tashkil etadi xolos. Aksincha, iste'dodli bola qobiliyatsiz bo'lishi mumkin emas. Bu fikrdan ko'rinib turibdiki, iste'dodli bola sof fikrli har xil qobiliyatga va umuman aqliy rivojlanishga tayyor turgan hozir javob nodir,shaxsiy xususiyatlarga to'la bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. G'oziev E. G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y
2. Umumiy psixologiya ( A.V.Petrovskiy tahriri ostida)T; "O'qituvchi "1992 y
3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
4. Karimova V. M Psixologiya T-2002 y
5. Nemov R. S Psixologiya 1- kitob M; 1999-yil
6. Маклаков А. Г Общая психология М; "Питер" 2003